




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2021- yil yanvar-mart)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o‘shishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog‘lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o‘z vaqtida xaridorlarga etkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko‘proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma’lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo‘lib to‘lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o‘shishiga xizmat qiladi.


2021- yil yanvar-mart oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 1076,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilning mos davriga nisbatan 54,5 mln. AQSh dollariga yoki 5,3 %ga ko‘paydi.






TSAda eksport hajmi 439,3 mln. AQSh dollariga (o‘shish sur‘ati – 123,8 %) va import hajmi 637,1 mln. AQSh dollariga (o‘zgarish sur‘ati – 95,5 %) yetdi. Hisobot davrida 197,9 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-mart, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O‘ZGARISH SUR‘ATLARI (2020-yil yanvar-martga nisbatan, %da)





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-mart mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, % da
Qozog'iston	229,9	36,7	193,2	21,4
Turkiya	226,5	197,6	28,9	21,0
Rossiya Federatsiyasi	211,9	64,4	147,4	19,7
Xitoy	127,5	26,3	101,2	11,8
Afg'oniston	27,6	27,6	0,0	2,6
Koreya Respublikasi	26,9	1,8	25,1	2,5
Braziliya	25,8	-	25,8	2,4
Ukraina	24,7	10,1	14,6	2,3
Qirg'iz Respublikasi	16,1	10,1	6,1	1,5
Tojikiston	14,3	13,4	0,9	1,3
Germaniya	13,3	2,4	10,9	1,2
Italiya	11,8	2,7	9,1	1,1
Singapur	9,0	8,8	0,2	0,8
Ozarbajjon	8,8	2,1	6,7	0,8
Qatar	8,2	8,2	0,0	0,8
Niderlandiya	8,2	5,7	2,5	0,8
Irlandiya	7,8	-	7,8	0,7
Litva	7,6	0,1	7,5	0,7
Polsha	6,5	2,6	3,8	0,6
Hindiston	5,4	1,5	3,9	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2021- yilning yanvar-mart oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,7 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi 2020- yilning shu davriga nisbatan 111,4 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2020- yilning yanvar-mart oylarida 54,9 %ni, 2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 52,3 %ni tashkil qilgan bo‘lib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 100,3 % ni tashkil etdi.

**TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI
VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI
(2021- yil yanvar-mart, % hisobida)**






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Afg‘oniston, Singapur va Qatar bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Qozog‘iston, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va Xitoy davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2021- yil yanvar-mart)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2021-yil yanvar-mart oylari yakuni bilan 439,3 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2020- yilning shu davriga nisbatan 123,8 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (70,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (10,8 %), turli xil tayyor buyumlar (8,2 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (4,3 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (2,9 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,1 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar



MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2021- yil yanvar-mart)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	439,3	140,8	298,5	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	47,4	19,5	27,9	10,8	13,8	9,3
Ichimliklar va tamaki	0,5	0,5	0,0	0,1	0,3	0,02
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	19,0	9,0	10,0	4,3	6,4	3,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,8	0,0	0,8	0,2	0,01	0,3
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	12,9	8,3	4,5	2,9	5,9	1,5
Sanoat tovarlari	310,6	62,7	248,0	70,7	44,5	83,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	9,4	5,4	3,9	2,1	3,9	1,3
Turli xil tayyor buyumlar	36,0	35,1	0,8	8,2	24,9	0,3
Xizmatlar	2,7	0,3	2,4	0,6	0,2	0,8






MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2021- yil yanvar-mart)

2021-yilning yanvar-mart oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan, hayvon va o‘simliklar moylari, yog‘lar va mumlar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	123,8	127,7	122,0
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	143,8	95,2	223,3
Ichimliklar va tamaki	63,5	60,0	139,3
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	80,4	128,4	60,2
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	5,3 m.	12,5	16 m.
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	131,3	137,8	120,9
Sanoat tovarlari	125,5	152,7	120,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	142,0	165,3	118,7
Turli xil tayyor buyumlar	111,8	113,0	78,0
Xizmatlar	194,2	69,0	2,6 m.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-mart)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston, Xitoy, Tojikiston va Ukraina hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 376,2 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 85,7 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 28,8 mln. dollar qiymat ega 50,8 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2020- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 36,6 % o'sgan, naturada – 7,4 % ko'paygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 20,8 mln. AQSh dollariga teng 41,2 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 37,5 %ga o'sgan), shuningdek 4,7 mln. AQSh dollari qiymatidagi 6,6 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 145,3 %ga teng).

2021- yil yanvar-mart, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar
6,6 ming
tonna
4,7 mln.
AQSH dollari



Uzum
1,2 ming
tonna
1,2 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oqlar
1,7 ming
tonna
2,1 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar
41,2 ming tonna
20,8 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-mart oylarida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 25,5 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 5,8 %ini tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2021- yil yanvar-mart)


Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-mart oylari mobaynida import hajmi 637,1 mln. AQSh dollari (2020- yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 95,5 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (22,7 %), sanoat tovarlari (19,8 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (19,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (16,1 %) hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (7,6 %) hisobiga to'g'ri keldi.



*XSST BO'YICHA
IMPORT TARKIBI
(mln. AQSH dollari)*



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari, yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar
- Sanoat tovarlari
- Mashinalar va transport asbob-uskunalari
- Turli xil tayyor buyumlar
- Boshqa turdagi tovarlar
- Xizmatlar



**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA
XSST BO‘YICHA IMPORT TARKIBI
(2021- yil yanvar-mart)**

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	637,1	372,7	264,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	102,3	55,4	46,9	16,1	14,9	17,7
Ichimliklar va tamaki	1,3	1,1	0,1	0,2	0,3	0,04
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	121,8	116,3	5,5	19,1	31,2	2,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	38,8	38,5	0,3	6,1	10,3	0,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	18,7	17,9	0,8	2,9	4,8	0,3
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	48,7	13,3	35,3	7,6	3,6	13,4
Sanoat tovarlari	126,5	91,5	35,0	19,8	24,5	13,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	144,4	33,2	111,1	22,7	8,9	42,0
Turli xil tayyor buyumlar	26,0	1,5	24,4	4,1	0,4	9,2
Boshqa tovarlar	1,6	1,6	-	0,2	0,4	-
Xizmatlar	7,2	2,3	5,0	1,1	0,6	1,9

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (31,2 %) va sanoat tovarlari (24,5 %) MDH mamlakatlariga to‘g‘ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (42,0 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (17,7 %) hissasiga to‘g‘ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-mart, % hisobida)

Tarkibi	2020- yilning shu davriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	95,5	106,3	83,6
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	139,4	99,1	2,7 m.
Ichimliklar va tamaki	131,6	129,9	149,9
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	74,8	82,9	24,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	159,8	159,7	175,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	131,1	143,1	45,0
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	131,1	149,1	125,3
Sanoat tovarlari	127,2	150,4	90,7
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	69,7	90,8	65,2
Turli xil tayyor buyumlar	73,6	17,0	93,2
Boshqa tovarlar	35,3	-	-
Xizmatlar	91,6	166,3	75,9





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-mart)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Turkiya, Braziliya, Koreya Respublikasi va Ukraina hamkor davlatlaridan jami import hajmi 536,1 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,1 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.:(71) 202-86-59